

13

TA'LIM INNOVATSİYASI VA INTEGRATSIYASI



Yanvar-2024

13-son 4-to'plam

TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI

Xalqaro ilmiy elektron jurnal

13-SON _ 4-TO'PLAM

Yanvar - 2024



LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Boltayeva Shaxnoz Bebudovna - BuxDu katta o`qituvchisi

Rashidova Marjona - BuxDu,

"Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya. Logistikaning hozirgi kundagi vazifalariga muvofiq uning ikki xil turdag'i vaz falari ajratib ko`rsatiladi – tezkor va muvofiqlashtirish vazifalari. Masalan, ta'minot sohasidagi vazifalar qatoriga xom ashyo va materiallar, alohida butlovchi qismlar va agregatlar, tayyormahsulot zahiralarining ta'minotchidan ishlab chiqarish korxonalari, omborlar tovarlar saqlanadigan joylarga harakatini boshqarish kiradi. Ishlab chiqarish sohasida logistika vazifasiga zahiralarni boshqarish kiradi, u bo`lg`usi mahsulot tarkibiy qismlarlarining ishlabchiqarish jarayoni barcha bosqichlari orqali harakati, shuningdek, uning ulgurji omborlar va sotuv bozorlariga ko`chib o`tishi ustidan nazoratni o`z ichiga oladi. Ushbu maqolada logistika korxonalarida sug`urta xizmatlari samaradorligini oshirish masalalari haqida fikr vamulohazalar yuritiladi.

Kalit so`zlar. Logistika, fragmentlashtirish davri, marketing, rivojlanish davri, integratsiyalar davri, klassik logistika davri, ikkinchi avlod logistikasi.

1.Kirish.

Logistika (yun. Logistike – hisoblash, muhokama san`ati) – 1) matematik mantiq tushunchasining sinonimi; 2) B. Rassel va uning maktabi vakillarining asarlarida bayon etilgan matematik mantiq taraqqiyotidagi bosqichning nomi. Nazariy matematikga qarama-qarshi qo`yiladigan hisoblash va geometrik o`lchovlar „san`ati“ qadimiy matemarikada “L”deb atalgan. G. V. Leybnits “L” va matematik mantiq terminlarini o`zi ishlab chiqqan xulosa chiqarishdagi hisobning sinonimi sifatida qo`llagan. Uning g`oyalari xozirgi zamon matematik mantiqda o`zining to`liq ifodasini topgan. “L” tushunchasi logistik metod (formal mantiqni formallashtirilgan tillar nazariyasi yordamida bayon etish usuli), logistik tizim (formal tizim) va boshqa ma`nolarni ham anglatadi. Logistikaning asl maqsadi kam xarajat qilib, ko`p foyda olish va yetarli natijaga erishishdir.

2.Adabiyotlar sharxi.

XX asrda logistika rivojlanishining tarixiy bosqichlarini ajratishga bir necha yondashishlar mavjud. Birinchi yondashish. Ba`zi bir olimlar logistika rivojlanishining to`rtta davrini ajratadilar.

1.«Fragmentlashtirish» davri (1920-1950) logistik konsepsiya hamda moddiy oqimlarni boshqarish va umumiy harajatlarni pasaytirish qurollari vujudga kelishining shart-sharoitlari shakllanishi bilan ta`riflanadi. Ammo logistika tamoyillari to`liq darajada talab qilinmagan edilar, faqat ba`zi bir tashkil qiluvchi, masalan ishlab

chiqarish, tashish yoki omborga joylashtirishdagi harajatlarni pasaytirishga imkon beruvchi ayrim logistik vazifalar qo'llanilgan. Ushbu davr harbiy logistikaning avvalo AQSHda faol rivojlanishi bilan ta'riflanadi. 50-yillarning boshiga kelib, harbiy logistikaning nazariyasi asosan shakllanib bo'lgan. Ishlab chiqilgan logistik yondashishlarning amaliy ahamiyati Ikkinchiji Jahon urushi yillarda Amerika armiyasi tomonidan isbotlangan, u vaqtida ta'minlash, omborlarga joylashtirish va tashishni yagona boshqarish va muvofiqlashtirish tamoyillari muvaffaqiyatli qo'llanilgan edi. AQSH va jahondagi eng eski tashkilot 1915 yilda tashkil qilingan xaridlarni boshqarish muammolari milliy assotsiatsiyasi bo'lib, u 1967 yilda ta'minot vakillarining milliy assotsiatsiyasiga qayta tashkil qilingan.

2. Marketingning tarkibiy qismi sifatida jismoniy taqsimlash konsepsiyasining vujudga kelish davri (1950-1970) logistikaning nazariyasi va amaliyoti shakllanishi, ishlab chiqarish va taqsimlashda harajatlarni pasaytirishning yangi yo'llarini qidirish, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan ta'riflanadi. Marketing falsafasi xorijda keng tarqalgan. Shu bilan bir vaqtida, avvallo harajatlarni pasaytirish nuqtai nazaridan distribyutsiyalash (jismoniy taqsimlash)ni yaxshilash imkoniyatlarini endi nazarga ilmaslik mumkin emasligi tushunila boshladi. Jismoniy taqsimlashda umumiy harajatlar konsepsiyasining vujudga kelishi logistik rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lgan. Bu konsepsiyaning ma'nosi distribyutsiyada harajatlarni shunday qayta guruhlash mumkinki, tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga harakatlantirishda ularning umumiy darajasi pasayishidan iboratdir.

3. Rivojlanish davri (1970-1980) biznes-logistika konsepsiysi asosida ishlab chiqarish va distribyutsiyalash (taqsimlash)da harajatlarni kamaytirishning yangi yo'llarini qidirish hamda logistik tizimlarni keng yoyish va sanoat logistikasi tamoyillari va sifatni umumiy boshqarishning falsafasini qo'llash bilan ta'riflanadi. Ammo foydani oshirishdan manfaatdor firmalarning ko'pchiligi uchun harajatlarni nazorat qilish va kamaytirishga logistik yondashish hali aniq bo'lmasan. Logistik muvofiqlashtirishni tatbiq qilishga harakatlarni ko'pgina yirik firmalarda menejmentning o'rtacha yuqori bo'g'inining qarshiligiga duch kelgan. Uzoq vaqt davomida an'anaviy vazifalarni (masalan, xarid qilish, tashish, yuklarni qayta ishslash) bajarishga odatlangan menejerlar ko'pincha umumiy harajatlarni pasaytirish konsepsiysi asosida moddiy oqimlarni to'g'ri boshqarishni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy o'zgarishlarni tatbiq etishga to'sqinlik qilganlar. O'sha vaqtida mavjud bo'lgan logistik harajatlarni tashkil qiluvchilarni ajratish va nazorat qilish va firmalar logistik operatsiyalarining moliyaviy natijalarini baholash uchun moslashmagan buxgalteriya hisobi tizimi qo'shimcha qiyinchiliklarni yaratgan. Yuqori sifatli xomashyo resurslarining yetishmasligi muhitida raqobat kuchayishi 1970 yillarning ajralib turuvchi alomati bo'lgan. Ko'pchilik mamlakatlarda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalarning avvalgi o'sishi nisbatan barqarorlashish bilan

almashtirilgan. Shuning bilan bir vaqtda umumiy logistik harajatlar o'sgan. Ko'pgina firmalarning asosiy vazifasi mahsulot tannarxini pasaytirish, xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va butlovchi qismlardan ratsional foydalanishdan iboratdir.

4. Integratsiyalash davri (1980-1990) firmaning logistik xizmatlari va uning logistik sheriklarini to'liq logistik tarmoqqa (xarid qilish – ishlab chiqarish - distribyutsiyalash va sotishga) birlashishi hamda moddiy birga bo'luvchi oqimlarni boshqarish, xalqaro logistik tizimlarning tashkil qilinishi bilan ta'riflanadi. Ko'rib chiqilayotgan davrda jahon iqtisodiyotida muhim o'zgarishlar sodir bo'lган, ular logistik «parvoz»ning fenomenini izohlaydi. Ularning asosiyalar quyidagilar: axborot texnologiyalarida inqilob va shaxsiy kompyuterlarni tatbiq etilishi; iqtisodiyot infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solinishidagi o'zgarishlar, sifatni umumiy boshqarish falsafasini hamma joyda tarqatish; sheriklik va strategik ittifoqlarning o'sishi; biznesni tashkil qilishdagi tarkibiy o'zgarishlar. Bu davrni shaxsiy kompyuterlar davri deb atash mumkin.

Logistika rivojlanishining tarixiy bosqichlarini ko'rib chiqishga ikkinchi yondashuv. Ko'pgina xorijiy va mamlakatimiz olimlari logistikaning rivojlanishi bosqichlarini ko'rib chiqishga boshqacha yondashuvga amal qiladilar, moddiy mahsulotlar tovar harakatlari tizimlari rivojlanishining uch bosqichga ajratadilar:

1) logistikagacha davr (50 yillargacha), bunda moddiy taqsimlanishni boshqarish fragmentli xarakterga ega bo'lган, firmalarning har xil bo'linmalari harakatlarini muvofiqlashtirish esa yetarlicha bo'lмаган;

2) klassik logistika davri (60-yillarning boshi – 70-yillarning oxiri) yirmalarda tashishlarning muvofiqroq shakllarini tashkil qilish o'rniga logistik tizimlarning yaratilishi; firmalar tomonidan tovar harakatlanishi jarayonini majmuaviy yondashish, tovar harakatlanishi vazifalarini bitimga kelishlar bilan integratsiyalash asosida boshqarilishi bilan ta'riflanadi;

3) eng yangi logistika yoki ikkinchi avlod logistikasi davri (80-yillarning boshi), uning uchun logistika konsepsiyasida bitimga kelishlarni ta'sir qilish sohalarining kengayishi, butun korxona asosidagi logistika tizimlarining rivojlanishiga umumiy maqsad butun firma ishining ko'proq samaradorligiga erishishdan kelib chiqqan holda majmuaviy yondashishning ustuvorligi xosdir. 80-yillarning o'rtalarida majmuaviy yondashish «umumiy javobgarlik» konsepsiysi ko'rinishida yangi rivojlanish olgan; bu yondashishning o'ziga xosligi logistik tizimni iqtisodiy soha va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlarning hisobida tashqariga chiqishidan iborat bo'lган, foydalar va harajatlarning ko'proq nisbati esa muvofiqlik mezoni bo'lган.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Бутаев Ш.А., Умаров Б.Ш., К^узиев А.У. «Логистические Методы и модели управления потоками поставок хлопка-сурса в Хлопкоочистительной промышленности». Т., 2010, 160 б.
2. Butayev Sh.A., Mirzaahmedov B.M., Jo‘rayev M.N., Do‘rmanov A.Sh., Bahodirov B. «Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish», Toshkent, 0 ‘zR Fanlar akademiyasi, «Fan» nashriyoti, 2009, 268 b.
3. Butayev Sh.A., Sidiqazarov Q.M., Murodov A.S., Qo‘ziyev A.U. «Logistika» (Yetkazib berish zanjirida oqimlami boshqarish). Monografiya. Т.: «EXTREMUM-PRESS» nashriyoti, 2012, 580b.
4. Zamirbekova, G. "ISSUES OF TRANSPORT LOGISTICS IN EFFECTIVE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITY." SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM 1.3 (2023).
5. Болтаева Ш. Вопросы развития малого бизнеса в сфере благосостояния и занятости населения //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

21	ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ С ПОМОЩЬЮ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ASSISTIVE TECHNOLOGY)	82
22	ABDUQAYUM YO'LDOSHEVNING "SHARAFNOMA" ASARIDA INSON RUHIYATI TASVIRI	88
23	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQ O'STIRISH VOSITALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92
24	FORMATION OF INTELLECTUAL CAPABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BY INTRODUCING THEM TO SCIENCE AND NATURE	95
25	MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTRISH METODIKASI	99
26	BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ERTAKLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	104
27	ЗООБЕНТОСА В КУЙМОЗОРСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ: ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ И ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОСИСТЕМЫ	113
28	LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA OBRAZLAR TASVIRI	117
29	BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	121
30	TEACHING ENGLISH IN NON LINGUISTIC DEPARTMENTS	126
31	METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH IN NON-LINGUISTIC DEPARTMENTS	130
32	OLIY TA'LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR KOMPETENSIYASINING SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	134
33	MUSTAQILLIK YILLARIDA KADR LARGA BO'LGAN TALAB	138
34	ИННОВАЦИОН РИСКЛАР: СУФУРТА АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ	141
35	VATANNI SEVMOQ INSONIY ULUG' FAZILATLARDANDIR	154
36	VATANNI SEVMOQ INSONIY ULUG' FAZILATLARDANDIR	158
37	DEVELOPMENT OF LEADERSHIP AND LEADERSHIP SKILLS IN YOUTH	162
38	THE ROLE OF THE GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	165
39	PISA XALQARO DASTURIDA O'QUVCHILARNI BAHOLASH UCHUN KONTEKSTLAR VA KO'NIKMALARNI MATEMATIK MAZMUN ASOSIDA MODELLASHTIRISH	168
40	BADIY USLUBDA MAJOZIYLIK IFODASI	173
41	QO'CHQOR NORQOBIL QISSALARINING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI	176
42	QISSACHILIK TARAQQIYOTI VA ABDIQAYUM YO'LDOSHEV IJODIGA BIR NAZAR	180

Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi

Eslatma!— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal, o’zbek, rus va ingliz tillarida bir oyda bir marotaba elektron tarzda internet tarmog‘ida tarqatiladi va nufuzli xalqaro bazalarda indekslanadi.

Bosh muharrir:
Saidova Mohinur Jonpo’latovna

Mas’ul kotib:
Vahobov Adxamjon Bahodirovich

Dizayn muharriri:
Xoliqov Tohirjon Shavkatjon o’g’li

— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı - ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal / 2023 yil